

SURXONDARYO VILOYATIDAGI SANOAT VA TRANSPORTLARNING ATMOSFERA XAVOSIGA ZARARLI TA`SIRI.

Maxammadiyev Asadulla Sharofiddinovich

Termiz davlat universiteti

Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasida o'qituvchisi

e-mail: maxammadiyevasadulla95@gmail, Tel: 998 97 690 30 10

Xoliqova Farida Jumayevna

Termiz davlat universiteti

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Maqolada inson salomatligiga ta'sir etuvchi chang va kimyoviy birikmalar, atmosfera havosini Surxondaryo hududida ifloslovchi manbalar va ularning salbiy oqibatlari va ularni aniqlash haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Atmosfera, chang kimyoviy birikmalar, inson, sanoat, transport, ekologik monitoring.*

Аннотация: *В статье приведены сведения о пыли и химических соединениях, влияющих на здоровье человека, источниках загрязнения атмосферного воздуха в Сурхандарьинской области и их негативных последствиях и их идентификации.*

Ключевые слова: *Атмосфера, пыль, химические вещества, человек, промышленность, транспорт, экологический мониторинг.*


Annotation: *The article provides information on dust and chemical compounds that affect human health, sources of air pollution in the Surkhandarya region and their negative consequences and their identification.*

Keywords: *Atmosphere, dust chemicals, human, industry, transport, environmental monitoring.*

Atmosfera havosi butun tirik organizmlarning hayot kechirishida eng muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Atmosfera havosi ming yillar mobaynida shakllangan bo'lib, shu yillar davomida tirik organizmlar qatorida insonlarning ham hayoti uchun zarur bo'lgan kimyoviy birikmalar shakllangan. Bu kimyoviy birikmalar Azot (N) 78%, Kislorod (O₂) 21%, Karbanat angidrit (CO₂) 0,03 Argon (Ar) 0,93% va boshqa aerazol gazlaridan tashkil topgan.

Surxondaryo viloyatida ham atmosfera havosini ifloslovchi manbalar 100 ga yaqini mavjud bo'lib shulardan 23 tasi atmosfera havosiga nisbatan ko'proq zarar yetkazuvchi korxonalar hisoblanadi. Xususan Surxondaryo viloyati Ekologiya va





atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi bilan hamkorlikda viloyatning bir nechta korxonalarida kuzatish va tahlillar olib borildi. 2022-yil aprel oyi davomida Termiz shaxrida joylashgan „Asror-Termiz Trans` MCHJ da ekologik monitoring ishlari olib borilganda (NOx) azot oksidlari miyorida 1,7 marta ortiqligi aniqlangan. Shuningdek Sho`rchi tumanida joylashgan “ZHONG HAIDE” MCHJ ga qarashli korxonada ham ekologik monitoring o`tkazilganida (CO) is gazi miyordan 2,3 marta ortiqligi aniqlangan, Sariosiyo tumanida joylashgan “Sharg`unko`mir” AJda Ekologik monitoring o`tkazilganida bu joyda ko`mir changi miyorida 1,7 marta, (CO) is gazi esa 2,7 marta ortiqligi niqlangan. Bundan tashqari Surxondaryo viloyatida atmosfera havosini ifloslovchi manbalar qatoriga Transport vositalari va “Afg`on shamoli” ning ham salmog`i katta.

Dunyo bo`yicha atmosfera havosini eng ko`p ifloslovchi manba transport vositalari bo`lib, atmosfera havosining ifloslanishida transport vositalarining ulishi 40-45% ni tashkil etadi. O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi matbuot xizmati ma`lumotiga ko`ra O`zbekistonda jismoniy shaxslarning avtomobillari soni 2021-yil 1-yanvar holatiga ko`ra 2 955 295 tani tashkil etgan. Shundan yengil avtomobillar- 2 767 126 ta, yuk avtomobillari-168 810 ta, avtobuslar-5 711 ta, mikroavtobuslar - 8 518 ta, maxsus transportlar – 5 130 tani tashkil qilgan. Qayt etilishicha, bu ko`rsatgich 2020-yilning mos davriga nisbatan 14 % ga ortgan. Bir yil davomida Respublikamizda 413 741,3 avtomobellar soni ortgan. Har yilli bu ko`rsatgich o`sib borishini inobatga oladigan bo`lsak transportlardan chiqadigan zararli moddalar Respublikamiz atmosfera havosini jiddiy ifloslaydi. Bu zararli moddalar Surxondaryo viloyati hududining bir qancha chorraxalarida “EKOLOB” asbobi yordamida o`rganildi. O`rganish jarayonida bu joylarda yani aholi yashash joylarida CO - uglerod oksidi va boshqa zararli kimyoviy birikmalar miyordan 1,2 va 1,4 marta ortiqligi aniqlandi.

Surxondaryo viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi statistik ma`lumotlariga ko`ra Surxondaryo viloyatida transport vositalaridan chiqayotgan kimyoviy birikmalar atmosfera havosini ifloslovichi manbalarining 90-95% i transport vositalariga to`g`li kelmoqda.

Avtomobil chiqindilari 5 ta asosiy gazdan iborat bo`lib ular HC, NOx, O₂, CO, CO₂ (6-si dizel dvigatellari uchun amal qiladi PM)

1.HC - uglevododlar yonmagan yoqilg`i zarralari bo`lib, ular egzoz trubkasi orqali atmosferaga chiqariladi.

2.NOx - azot oksidi va qo`shimcha oksidlar "Kislotali yomg`ir" ni keltirib chiqaradi, bu ko`pchilik shaharlarda kuzatilishi mumkin.



3.O2 - Kislorod bizning mavjudligimiz uchun zarurdir. Sof kislorod miqdori sezilarli darajada oshishini ta'kidlash kerak.

4. CO - uglerod oksidi. Shaffof, hidsiz va ayni paytda halokatli gaz.

5. CO2 - sayyoramizdagi issiqxona effekti uchun mas'ul bo'lgan karbonat anhidrid.

6. PM - dizel dvigatellarining chiqindi gazlaridagi qattiq zarralar va suyuq tomchilar - kuyikish.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yuk mashinalari va avtobuslar avtomobillarga qaraganda ko'proq chiqindi gazlarni ishlab chiqaradi. Bu fakt to'g'ridan-to'g'ri ish rejimi va avtomobillarning ichki yonish dvigatellari hajmiga bog'liq. Masalan, yengil avtomobil kuniga taxminan 220 mg/m³ uglerod oksidi, avtobus 230 mg/m³, kichik yuk mashinasi esa 500 mg/m³ ga yaqin uglerod oksidi ishlab chiqaradi. Yengil avtomobil 45 mg/m³ azot oksidi, avtobus 18 mg/m³, kichik yuk mashinasi 70 mg/m³ beradi. Shuningdek, avtobus yengil avtomobildan farqli ravishda havoga doimo oltingugurt, uglerod va qo'rg'oshin birikmalari oksidlarini chiqaradi.

Surxondaryo viloyatida ham atmosfera havosining ifloslanish darajasi katta bo'lib bu ko'rsatkich Termiz shahri hududi katta chorahalari va sanoat zonalarida ko'p kuzatiladi. Termiz shahri katta chorahalarida 20 sekuntlik qizil chiroqda 100 ga yaqin transport vositalari yig'ilishi natijasida shu yaqin atrofga (CO) is gazi, (CO2) karbonat anhidrit, (NOx) azot oksidi va yana bir qancha kimyoviy birikmalarning to'planishiga sababchi bo'ladi bu gazlar esa shu yaqin atrofda yashovchi insonlar salomatligiga salbiy ta'sir etadi.

Inson va barcha tirik organizmlarning yashash muhitida chang zarachalari va kimyoviy birikmalarning miyordan ortishi natijasida turli xildagi salbiy oqibatlar kuzatiladi. Changlangan havo va sanoat, transportlardan chiqayotgan kimyoviy birikmalar yig'ilib qolgan joylarda insonlar nafas olishi natijasida inson nafas olish organlari, ovqat hazm qilish organlari, ko'zda oq parda hosil bo'lishi, teri yalig'lanishi, o'pkansilikoz va boshqa yana bir qancha xavfli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumot ko'ra yilliga 7 milliondan ortiq kishi havoning haddan tashqari ifloslanishi natijasida vafot etmoqda. Bu ko'rsatkich katta qismi Osiyo va Afrika qit'asi mamlakatlariga to'g'ri keladi. Inson yurak kasalliklarining 25 foizi, shol kasalliklarining 24 faizi, o'pka kasalliklarining va o'pka saratonining 43 foizi ifloslangan havodan nafas olish natijasida kelib chiqmoqda.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Otaboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera .-Toshkent, «O`qituvchi», 1995.
2. Sultonov R.S. Ekologiya va atrof- muhitni muhofaza qilish asoslari. T. Musiqa. 2007.
3. Surxondaryo viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi statistik ma`lumotlari.
4. t.me/ecogov.uz

